

## PUDRAT SHARTNOMASI

31«8»2022 yil.

207-4-66-OB/2022-son

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Chirokchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.K.Abduraxmonov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi M.Nurimov ikkinchi tomondan doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

Chiroqchi tuman hokimining 2022 yil Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risidagi qaroriga asosan, Chiroqchi tuman Qizilchorva MFY dona qishlig'i katta yuldan kirish qismidan ichki xujali yulini 0.440 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyxa smeta xamda ekspertiza xujjatlari asosida shartnomasini tuzdilar.

### I. TARIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar; qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi; vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar; berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar; shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### II. ShARTNOMA MAVZUSIVA AMAL QILISH MUDDATI

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga **235 000 000 (Ikki yuz o'ttiz besh million )** so'm bo'yicha bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi. Shartnoma ikkala taraf tomonidn imzolanib G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" Dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

### III. ShARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

56. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

57. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

58. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

59. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 30 foizi miqdorida jarima to'laydi.

60. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

61. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiya sining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 30 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

62. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

48. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 3 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

49. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

### **XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH**

51. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

52. Pudratchi: ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

54. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

55. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

38. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallanguncha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

39. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

#### **X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI**

40. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

41. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

42. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **XI. QURILISHI TUGALLANGAN OB'JEKTNI QABUL QILIB OLISH**

43. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

44. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

45. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

46. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

#### **XII. KAFOLATLAR**

47. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z

31. Alohida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiya-siyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

32. Qabul qilinadigan konstruktsiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruktsiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiya-siyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

33. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

35. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

36. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

37. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022 yil "26" abyrctdagi 139829-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **235 000 000 (Ikki yuz o'ttiz besh million )** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. PUDRATChINING MAJBURIYaTLARI**

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga \_\_- ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish; \_\_- ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash; qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish; Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish; qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish; mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektни foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **V. BUYuRTMACHINING MAJBURIYaTLARI**

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi: mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga \_\_- ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga \_\_\_-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida

Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

9. Shartnoma: milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

11. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 60 kuni tashkil etadi.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

## VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu **70 500 000 (Yitmish million besh yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

14. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (-ilova).

15. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

16. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 50 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida - ishlar qiymatining kamida 45 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

17. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

18. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH

19. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

20. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

21. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

22. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

23. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

24. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

25. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

27. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

28. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

29. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

30. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.



63. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

64. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

**XVI. ALOHIDA SHARTLAR** 65. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

66. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

67. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.



68. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

69. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

70. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

71. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

#### 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

BUYURTMACHI:	PUDRATCHI:
Nomi: Chiroqchi tumani hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	Nomi: OOO "QURILISH MUHANDISLARI "MCHJ
Manzili: Chiroqchi tumani xonjon kuchasi 2/43 uy	Manzili: Chiroqchi tumani Xumo Mfy Rayonobod qishlog'i.
Shx/r: 401722860102427065200110012	Shx/r: 20208000600824641001
INN: 204 955 228	Bank nomi: MIKROKREDIT BANK
G'aznachilik nomi: O'zRes Moliya Vazirligi	CHIROQCHI FILIALI
G'aznachiligi	MFO: 00175
x/r: 23402000300100001010 INN: 201 122 919	INN: 305182467
Bank: Toshkent sh. Markaziy bank BBXKKM	
MFO: 00014	
Raxbar:  A.K. Abduraxmonov	Raxbar:  M. Nurimov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.



Imzolovchi F.I.SH.	ALISHER ABDURAHMONOV KAMOLOVICH
Imzolangan sana	31 avg 2022 10:08
Hujjat kodi	<b>QT7355513740</b>
Hulosa kodi	<b>JB0870413557</b>

Chiroqchi tuman Yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh  
yurista-asstenti

2022 yil 31 Avgust



X.B. Yarbazarov

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi: ShARTNOMA.
2. Loyi haning nomi: **PUDRAT ShARTNOMASI**

"Buyurtmachi" deb yuritiladigan Chiroqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.K.Abduraxmonov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi M.Nurimov Chiroqchi tuman Qizilchorva MFYdagi **235 000 000 (Ikki yuz o'ttiz besh million ) so'mlik ichki yullarni ta'mirlash buyicha pudrat shartnomasi**

Loyixa Chiroqchi tumani xokimligi obodonlashtirish boshqarmasi xodimi tomonidan kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Chiroqchi tumani Yuridik xizmat  
ko'rsatish markaz bosh  
yuristkonsulti**



**X.B.Yarbazarov**

2022 yil «31»Avgust

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 139829 на приобретение Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог

Способ проведения электронный

Дата 26.08.2022

Время рассмотрения 26.08.2022 18:44

Конкурсная комиссия Туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее - Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	ABDURAHMONOV ALISHER KAMOLOVICH	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
<b>Секретарь комиссии</b>	NURMUKHAMMADOV BAHODIR G'ALYRAT O'G'LI	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	JO'RABAYEV ANVAR FSHADYATOVICH	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	SAYFURH MARJON ALI AMUROBOVICH	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	SOXTOV ZOKIR AXMADOVICH	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси
<b>Член комиссии</b>	NORMOMINOV ISOMSHIN ZULDULLAYEVICH	Чирокчи туман ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 26.08.2022 года № лота 139829. Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технично-квалификационной части: 60.00 / Весовой коэф. ценовой части: 40.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог	
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог	
Количество товара	1.00	
Единица измерения		
Цена товара (услуги) за единицу	247 575 025.00	
Стартовая сумма	247 575 025.00	
Валюта	UZS	

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1. Таблица объекта Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог

Тип: Текстовое значение

Описание: Оценка 3 балла. Давление базируемых показателей

тамирлаш ишлари буйича буйича тегишли буротмачилар томонидан ижобий тавсияномалар, ёки хулосалар, Жорий танлаш объектини жойида ўрганилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар (маҳалла ва кишлоқлар мугасадди вакилларида олинган маълумотнома ва бошқа ҳужжатлар)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО ХАЛЛБЕК МЕ'МОР	20	Файл жойлаштирилди	17	Экспертная		
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	20	Нусхаси илова килинди	18	Экспертная		

Критерий №2.5. Танлаш таклифининг қайтариб олинмаслигини таъминлайдиган закатат ёки банк кафолатининг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабдор ташкилот таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатишини асословчи танлов предмети буйича тегишли банк муассасасидан кафолат хати тақдим этилиши лозим. Шунингдек талабдор ташкилотнинг банк ҳисоб рақамда танлов предметининг кмида 20% миқдорда маблағлар қолдиғи бўлиши. Агар ушбу талаб буйича маълумотлар тўлиқ ва сифатли бўлмаган тақдирда, комиссия таркиби томонидан иштиракчи таклифи рад этилиши, ёки қисман баҳоланиши мумкин

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО ХАЛЛБЕК МЕ'МОР	30	Файл жойлаштирилди	27	Экспертная		
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	30	Нусхаси илова килинди	28	Экспертная		

Критерий №3.3. Танлов иштирокчисининг салоҳияти

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилоти электрон рейтинг тугрисида маълумот. Тўлова қодирлиги ва айланма маблағлар билан таъминланганлиги. Ҳисоб рақамдаги маблағлар қолдиғи. Солиқ, банк кредитлари ва бошқа туловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисидаги маълумотлар.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО ХАЛЛБЕК МЕ'МОР	25	Файл жойлаштирилди	21	Экспертная		
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	25	Нусхаси илова килинди	22	Экспертная		

Критерий №4.2. Танлов иштирокчисининг иш ҳақи жамғармаси ва ходимлар ўртга сони буйича кўрсаткичлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Ходимлар сони ва таърибаси тугрисида маълумотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO XALILBEK ME'MOR	15	Файл жойлаштирилди	12	Экспертная		
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	15	Нусхаси илова килинди	13	Экспертная		

Критерий №5.4. Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Низом ва гувоҳномадан, тавсифчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари, СТИР ракамлари, Статистик маълумотлар, Бошқа маъжуд ҳужжатлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO XALILBEK ME'MOR	10	Файл жойлаштирилди	8	Экспертная		
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	10	Нусхаси илова килинди	9	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
OOO XALILBEK ME'MOR	247 575 025,00	243 000 000,00 UZS	243 000 000,00	00,00	243 000 000,00	25.08.2022 00:20:48	38,68
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	247 575 025,00	235 000 000,00 UZS	235 000 000,00	00,00	235 000 000,00	25.08.2022 18:10:41	40,00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
OOO XALILBEK ME'MOR	51	38,68	89,68
"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ	54	40	94

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 139829 от 26.08.2022 года на приобретение Услуги по текущему ремонту автомобильных дорог определила победителем:

"QURILISH MUHANDISLARI" MCHJ  
305182467

и резервный исполнитель: OOO XALILBEK ME'MOR (30630760)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDIRAHMONOV ALISHER KAMOLOVICH	Согласен	
Член комиссии	JO'RAYEV ANVAR BESHDAVLATOVICH	Согласен	
Член комиссии	SAYPIYEV MARDON ALLAMURODOVICH	Согласен	
Член комиссии	SOATOV ZOYIR AHMEDOVICHI	Согласен	
Член комиссии	NORMO'MINOV ISOMIDDIN ZUADULLAYEVICHI	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

ТАНЛОВ БАЁНИ

Tasdiqlayman

Tuman xokimligi obodonlashtirish  
boshqarmasi boshlig'i  
A.Abduraxmonov

31.08.2022 yil

№139829 /1

Chiroqchi tuman

Tuman xokimligi obodonlashtirish boshqarmasi Chiroqchi tuman Qizilchorva MFY dona qishlig'i katta yuldan kirish qismidan ichki xujali yulini 0.440 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun tanlov asosida shartnoma tuzib joriy ta'mirlash ishlarini tashlik qilish komissiyasining.

**Tanlov Konkurs bayoni**

**Komissiya raisi Chiroqchi tuman**

**Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i**

**A.Abdurahmanov**

**A'zolar**

**Xujalik mudiri**

**A.Juraev**

**Bosh xisobchi**

**B.Nurmuxammedov**

**Bo'lim boshlig'i**

**Z. Soatov**

**Bo'lim boshlig'i**

**A.Davlatov**

**Bo'lim boshlig'i**

**M.Sayfiev**

**Kun tartibida kuriladigan masala**

Chiroqchi tuman xokimligi obodonlashtirish boshqarmasi Chiroqchi tuman Qizilchorva MFY dona qishlig'i katta yuldan kirish qismidan ichki xujali yulini 0.440 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun pudratchi tashkilot bilan shartnoma qilish va shartnomani tashdiqlash tug'risida.

Komissiya Chiroqchi tuman xokimligi obodonlashtirish boshqarmasi Chiroqchi tuman Qizilchorva MFY dona qishlig'i katta yuldan kirish qismidan ichki xujali yulini 0.440 km qismini joriy ta'mirlash ishlari buyicha 2ta MCHJ qatnashayotganligini elon qildi.

Tanlov konkurs buyicha 2022 yil 19 avgust kunida lot 139829-sonli pratakoliga elonga quyilgandan keyin 2 ta tashkilot o'zini takliflari bilan qatnashdi df eng yuqori bal "Qurilish muhadislari" MCHJ oldi va 2 kun muhokamada quyildi xamda boshqa etirozlar bulmagandan keyin "Qurilish muhadislari MCHJ" bilan shartnoma tuzildi.

**Tanlov konkurs komissiyasi qaror qiladi:**

1. "Qurilish muhadislari MCHJ" g'olib deb topilsin.

2. "Qurilish muhadislari MCHJ" tomonidan tavsiya etilgan joriy ta'mirlash shartnoma tuzib olib kelishni xujalik mudiri A.E.Juraevga tipshirilsin.
3. Ushbu bayonnoma qarorini bajarilishini nazorat qilish bosh xisobchi B.G'.Nurmuxammedovga yuklatilsin.

**Komissiya raisi**

**A'zolar**


**Xujalik mudiri**

**Bosh xisobchi**

**Bo'lim boshlig'i**

**Bo'lim boshlig'i**

**Bo'lim boshlig'i**



**A.Juraev**  
**B.Nurmuxammedov**  
**Z. Soatov**  
**A.Davlatov**  
**M.Sayfiev**



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"QURILISH MUHANDISLARI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"QURILISH MUHANDISLARI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

21.12.2017

560259

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305182467

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Xumo, Rayonobod qishlog'ida,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, YAGONA

tomonidan

DARCHA MARKAZI

berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)







Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"XALILBEK ME'MOR" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"XALILBEK ME'MOR" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

17.07.2019

744086

ro'yxat raqamii yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

306583569

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Taraqqiyot, Ravot qishlog'i,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





## XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 21 - aprel

VI-63-41-4-66-K/22

Chiroqchi tuman hokimligi

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida**

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashining 2022 yil 12 apreldagi “Mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida” VI/63-sonli Qarori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budjet” axborot portali orqali “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya‘ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Chiroqchi tuman hokimligining Matbuot xizmati (S.Raimkulov) va tuman hokimligi moliya bo‘limi (SH.Maxmatqulov)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya‘ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.
4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (U.Abdurahmonov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Boboqulov)lar zimmasiga yuklansin.



Chiroqchi tumani 2022-yil fevral-mart oylarida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT

№	Tahfid raqami	G'olib taklif ma'lumotlari		Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
		Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlari soni				
"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'							
1	0650400101.	Chiroqchi tuman G'alachi MFY Kutubxona qishlog'idan Yaraktepa qabristonigacha bo'lgan 2.5 km yo'l ni 4.5 metr enlikda yo'l ni asfalt qilish	7575	995 000 000	995 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
2	0650400097.	Chiroqchi tuman Qirg'iz MFY hududidagi 350 dona sim yog'och va oraliq elektr uzatish simlarini hamda 8 dona transformatori almashitirish	7201	952 000 000	952 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
3	0650400002.	Qizilchorva MFY Dona qishlog'i katta yuldan kirish qismidan (Qalandarxon eshon boboni oldidan) 1.5 km tash yulni asfalt qilish, eni 4.5 metr	6100	700 000 000	700 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
4	0650400004.	Dodiq MFY Dodiq qishlog'idagi eski garajni oldidan Chiroqchi-Shahrisabz yulidan Shakarbuloq MFY Shakarbuloq qishlog'igacha 2.4 km va Dodiq MFY dan Shakarbuloq MFY ga olib boradigan yuldan Navruz MFY tomonga qarab 0.6 km hammasi bo'lib 3 km yulni 4.5 metr enlikda asfalt yul qilish	5128	1 050 000 000	1 050 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
5	0650400095.	Chiroqchi tuman Jar MFY Qurultoy qishlog'ini Qizilchorva qishlog'idan kelish tarafidan 3 km yulni asfaltlash kerak	3568	1 075 000 000	1 075 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
6	0650400019.	Do'stlik-diyori MFY Jar qishlog'i Dodiq MFY ga ketadigan Chiroqchi-Shahrisabz yulidan yem shahobchasi (eski dorixonona) dan o'tgandan so'ng chap tomonga 1.5 km. Bundan tashqari Do'stlik-diyori MFY Jar qishlog'ini kesuvchi daryo oralig'idan 38 maktabgacha 1.5 km yul. Jami 3.0 km yulni asfalt qoplamasi yo'tqizish kerak	3077	950 000 000	950 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
7	0650400035.	Taloqtepa MFY Taloqtepa-Moylijar qishloqlari hududidan utuvchi 6 km asfalt yulni yamajni tamirlash, yulni eni 5 metr	2667	800 000 000	800 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi

№	Kod	Tuman MFY Jari	Tuman MFY Jari	Tuman MFY Jari	Tuman MFY Jari	Tuman MFY Jari	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi		
							Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	
8	0650400086	Jar. MFY Jar 4-kucha kiritish qismini 2,5 km yulni tosh yulni asfalt qilish	7614	980 000 000	980 000 000	980 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	
9	0650400046	Chiroqchi tuman Mustaqillik MFY hududi 35-maktabdan O'rg'iz MFY binosigacha piyodalar va velosaped yulakchasi hamda yoritish chiroqlari o'rnatish	2493	980 000 000	980 000 000	980 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	
10	0650400061	Chiroqchi tumani makazida joylashgan Kishmishitpa MFY Kunchiqar ko'chasida asosiy muommio bo'lib turgan 2 km 200 metr ichki yo'llarni asfalt qilish	2475	990 000 000	990 000 000	990 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	
11	0650400066	Chiroqchi tumani Obod MFY Qoraburug' qishlog'i hududidagi 180-sonli maktabga ichimlik suvi tashkil qilish uchun arizdan quduq hamda suniy futbol maydonchasi	2454	450 000 000	450 000 000	450 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman xalq ta'limi bo'limi	
12	0650400027	Qizilchorva MFY Dasht qizilchorva qishlog'i hududida joylashgan 42-sonli maktab oldidan boshlab 1,5-2 km asfalt qilish	2303	900 000 000	900 000 000	900 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	
jami					47655	10822000000	10822000000	x x	x x

Taqsimlanmagan mablag'

Tuman hokimining birinchi o'rinbosari

Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari

Tuman mahalla va nuroniyatni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i

Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri

Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri

Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

- E. Boboqulov
- O. Abdurahmonov
- B. Xoliyarov
- Sh. Maxmatqulov
- F. Jumarov
- I. Normuminov

